

# XIZMAT KO'RSATISH KORXONAIARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORIIGINI BAHOLASH USULARI

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*Samarqand filiali.*

*Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasи o'qituvchisi*

***Umirov Islombek Fuqatovich***

+998933516500

*TDIU Samarqand filiali, talabasi*

***Shokirov Shahzod Shokir o'g'li***

*shahzodshokirov863@gmail.com*

+998938477704

## O'zbek tilida:

**Maqola annotatsiyasi:** Ushbu maqola, zamonaviy texnologiyalarning ta'lif sohasidagi revolyutsion o'zgarishlarga qanday ta'sir ko'rsatishini chuqur o'rganadi. Tadqiqotda, raqamli ta'lif platformalari, sun'iy intellekt va onlayn ta'lifning o'quv jarayonida samaradorligini oshirishdagi roli ta'kidlanadi. Mualliflar, texnologiyaning o'quvchilarning bilim olish usullarini qanday yaxshilashi, shuningdek, o'quvchilarga individual yondashuv imkoniyatlarini qanday kengaytirishi va ularning motivatsiyasini qanday oshirishi haqida batafsil tahlil o'tkazadilar. Maqola, texnologiyalar yordamida ta'limda shaxsiylashtirilgan yondashuvlar va interaktiv o'qitishning yangi ufqolarini ochish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. Kelajakda, ta'lif tizimiga texnologiyalarni yanada chuqurroq integratsiya qilishning strategik yo'nalishlari va samarali usullari haqida tavsiyalar berilgan.

## Rus tilida:

**Аннотация статьи:** Данная статья представляет собой глубокое исследование влияния современных технологий на радикальные изменения в сфере образования. В исследовании рассматривается роль цифровых

образовательных платформ, искусственного интеллекта и онлайн-обучения в повышении эффективности учебного процесса. Авторы подробно анализируют, как технологии улучшают методы усвоения знаний учащимися, расширяют возможности индивидуализированного подхода и повышают мотивацию студентов. В статье подчеркиваются новые горизонты персонализированного и интерактивного обучения, открываемые благодаря технологиям. Также представлены рекомендации по стратегическим направлениям и эффективным методам дальнейшей интеграции технологий в образовательную систему.

**Ingliz tilida:**

**Article Abstract:** This article offers an in-depth analysis of how modern technologies are driving revolutionary changes in the education sector. The study focuses on the role of digital learning platforms, artificial intelligence, and online education in enhancing the effectiveness of the learning process. The authors provide a detailed analysis of how technology improves students' knowledge acquisition methods, expands opportunities for personalized learning approaches, and increases student motivation. The article highlights the new possibilities for personalized and interactive teaching that are unlocked through technological integration. Additionally, it offers strategic recommendations and effective methods for the deeper integration of technologies into the educational system in the future.

**O'zbek tilida:**

*Ta'lim texnologiyalari , Raqamli ta'lim platformalari , Sun'iy intellekt va ta'lim , Onlayn ta'lim, Shaxsiylashtirilgan ta'lim, Interaktiv o'qitish, Ta'limda innovatsiyalar, O'quvchilarga individual yondashuv, Ta'lim samaradorligi ,Ta'limda motivatsiya.*

**Rus tilida:**

*Образовательные технологии , Цифровые образовательные платформы , Искусственный интеллект в образовании , Онлайн-обучение , Персонализированное обучение , Интерактивное обучение , Инновации в*

*образовании , Индивидуальный подход к учащимся , Эффективность образования , Мотивация учащихся*

*Ingliz tilida:*

*Educational technologies , Digital learning platforms , Artificial intelligence in education , Online learning , Personalized learning , Interactive teaching , Innovations in education , Individualized student approach , Learning effectiveness , Student motivation*

Xizmat ko‘rsatish sohasining turli xil tarmoqlari iqtisodiy taraqqiyotning sanoat rivojlanishidan keyingi bosqichining rivojlanish xususiyatlarini o‘zida aks ettirganligi sababli, iqtisodiy adabiyotlarda zamonaviy postindustrial jamiyat rivojlanishini obyektiv ravishda tavsiflash uchun xizmat ko‘rsatish va servis sohasini uchta sektorga ajratish tavsiya etilgan. Bular:

1. Birinchi darajali sektor – moddiy ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatuvchi xizmatlar;
2. Ikkinci darajali sektor – savdo, moliya, sug‘urta, ko‘chmas mulkni saqlash xizmatlari;
3. Uchinchi darajali sektor – axborot-kommunikatsion, ta’lim, ilmiy-tadqiqot, tadbirkorlik va davlat boshqaruvi xizmatlari.

Servis jarayoni – bu resurslardan foydalanish omillarini yakuniy natijaga o‘zgartirishga yo‘naltirilgan harakat yoki harakatlar to‘plamidir. O‘zgartirish obyekti sifatida inson, moddiy va nomoddiy obyektlar ishtirok etishi mumkin.

Funksional tavsif tarmoqlarning ixtisoslik (masalan, mulk obyektlari, shaxslar va iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish) yo‘nalishlarini ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha, makroiqtisodiy darajada xizmatlarni tasniflashda tarmoq bo‘linishi bilan funksional yo‘nalish bilan birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Tarmoq bir xil ishlab chiqarish jarayoniga ega bo‘lgan iqtisodiy birliklar guruhi sifatida aniqlanadi, ya’ni bir turdagи mahsulotlar va xizmatlarning bir turi yoki guruhini ishlab chiqarishdan yakuniy xizmatlarning bir xilligigacha faoliyat yurituvchi iqtisodiy agentlar to‘g‘risida axborotlarni tartibga solish imkonini beradi.


Tarmoq va funksional yondashuvlarning uyg‘unligi xizmat ko‘rsatish sohasini milliy hisoblar tizimiga to‘liq kiritish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi. Bu esa xizmatlarning ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi o‘rni, ularning zamonaviy iqtisodiyotdagi rolini real aks ettirish imkonini beradi. iqtisodiy jihatdan xizmatlar iqtisodiy tovarlar tarkibiga kiradi. Xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha faoliyat milliy hisoblar tizimi vositasida aholining turmush darajasi bilan bevosita bog‘liq. Amalda bu, bizga, xizmatlarning funksional tabiati bo‘yicha ba’zi tafovutlarni va noaniqliklarni bartaraf etish imkonini beradi. Chunki aksariyat xizmatlar (masalan, aloqa, transport, axborot xizmatlari va b.) ishlab chiqarishga (yuk transportiga) xizmat ko‘rsatishda jamoaviy xususiyatga va individual yondashuvda shaxsiy yo‘nalishdagi xizmatlarga (yo‘lovchi tashish) ega bo‘ladi. Xizmatlarning alohida guruhlari yoki xizmatlar turlarida ularning tasnifi funksional maqsadi (masalan, ishbilarmonlik xizmatlari maslahat, moliyaviy, investitsion, operatsion, texnik-ekspluatatsion, axborot, aholi bandligiga ko‘maklashish kabilardan tashkil topadi), iste’mol maqsadidagi (moddiy va nomoddiy tovarlar, qurilish materiallari savdosi va h.k.), maqsadga yo‘naltirilganligi (turizm rekreatsion, ekskursion, ilmiy, ishbilarmonlik, etnik maqsadlarda bo‘lishi mumkin) va boshqa ko‘plab xususiyatlari ko‘ra guruhlardan tashkil topishi mumkin.

Aytish kerakki, xizmat ko‘rsatish jarayonidagi o‘rni bo‘yicha asosiy va qo‘srimcha xizmatlarga bo‘lish mumkin. Asosiy xizmatlar texnologik jarayonning mohiyatini tashkil qiladi. Ushbu xizmatlar asosiy ehtiyojni qondirishda ko‘mak berish uchun mo‘ljallangan va aksariyat hollarda ularning narxi asosiy profildagi xizmatlarning narxiga kiritiladi. Qo‘srimcha xizmatlar iste’molchining iltimosiga ko‘ra amalga oshiriladi va uning hisobidan to‘lanadi. Xizmatlarni asosiy va qo‘srimcha turlarga bo‘lish ichki guruh tasnifini tuzish imkonini beradi. masalan, chakana savdoda servis jarayonining o‘rni bo‘yicha tovarlarni oldi-sotdi qilish bilan bog‘liq asosiy xizmatlar, o‘zaro bog‘liqligiga ko‘ra, ma’lumotlar byurosi, qo‘riqlash

kameralari kabilarni ifodalovchi xizmatlar hamda kreditga tovarlarni taqdim qilish, xarid qilingan tovarlarni transportda uyiga yetkazib berish, texnik xizmatlar ko‘rsatish kabi qo‘s Shimcha xizmatlarni keltirish mumkin. Ba’zi tarmoqlarda ixtisoslik yo‘nalishlariga ega xizmatlar iste’molchilarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar bo‘yicha hamkorlikdagi yoki qo‘s Shimcha funksiyalarni bajarishi mumkin.

Innovatsiyalar samaradorligini baholashning xorijiy amaliyotida eng mashhur baholash usullari STAR va IRI usullari hisoblanadi. mahalliy amaliyotda qo‘llaniladigan va korxonaning innovatsion faolligi hamda uning innovatsion raqobatbardoshligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar odatda resurs-sarf yondashuvi, vaqt, yangilanish va tuzilmaviy xususiyatlari bo‘yicha guruhlarga ajratiladi. Biroq, innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning barcha usullarini xizmat ko‘rsatish korxonalariga qo‘llash mumkin emas. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyat samaradorligi mezoni tanlab belgilanadi. innovatsiyalarni miqdoriy baholash masalasi hali ham yetarli darajada yoritib berilmagan. Samaradorlikning bir qismi sifatida ijtimoiy samaradorlik va boshqa sifat mezonlari kabi komponent ko‘pincha e’lon qilinadi, ammo ularni miqdoriy baholash (raqamlı hisoblash) usullari keltirilmaydi. Bundan tashqari, innovatsiyaning iqtisodiy samaradorligini xaridor nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish mumkin. Xizmat ko‘rsatish sohasidagi innovatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish nuqtayi nazaridan mavjud yondashuvni ishlab chiqish lozim.

Iqtisodiy adabiyotlardagi ma’lumotlar tahlili bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi vaqtgacha innovatsiyalarni joriy etishning iqtisodiy natijalarini baholash metodologik nuqtayi nazardan yaxlit tizimlashtirilmagan. Bunda asosiy jihat shundan iboratki, birinchi navbatda, milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik tuzilmasining imkoniyatlari va yangi texnologiyalarning jozibadorligini hisobga olgan holda amalga oshirilayotgan raqobatbardosh loyihalarni tanlashdan iboratdir.



### **1.3-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion rivojlanishni taqqoslama baholash ko'rsatkichlari<sup>1</sup>**

Shuning uchun innovatsion faoliyatni tadqiq etishda, biz, innovatsion faoliyatni baholash ko'rsatkichlarini tizimlashtirish jarayonini amalga oshirishni alohida ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Bunda, bizning fikrimizcha, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion rivojlanishni taqqoslama baholash ko'rsatkichlari tizimi besh guruhdan iborat ko'rsatkichlarni o'z ichiga qamrab oladi (1.3-rasm).

1.3-rasmda keltirilgan tasnifga ko'ra, **birinchi guruhga** inson resurslari soni va sifatini belgilovchi ko'rsatkichlar tegishlidir:

- fan sohasida oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilarining barcha o'quv yurtlarini bitiruvchilarga nisbatan ulushi;
- ilmiy darajaga ega xodimlar va diplomi mavjud muhandislar ulushi;
- o'rta va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarda ishlovchilar ulushi;
- yuqori texnologiyali xizmatlar sohasida band bo'lganlar ulushi.

<sup>1</sup> muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

**ikkinchi guruh** uchta ko'rsatkichni o'z ichiga oladi:

- ilmiy-tadqiqot sohasini byudjetdan moliyalashtirish hajmi (yalpi ichki mahsulotga nisbatan %da);
- xususiy tadbirkorlik tomonidan ilmiy-tadqiqot sohasini moliyalashtirish hajmi (yalpi ichki mahsulotga nisbatan %);
- bir million aholiga yuqori texnologiyali sanoatda qo'llaniladigan patentlar soni.

**Uchinchi guruh** bilimlarni uzatishning turli jihatlari bo'yicha o'lchov parametrlarini o'z ichiga oladi:

- uy xo'jaliklarining innovatsion sohasida faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta korxonalar soni;
- innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi kichik va xususiy korxonalar soni;
- ishlab chiqarish sohasidagi innovatsion xarajatlarning yalpi foydaga nisbati.

**To'rtinchi guruh** ko'rsatkichlari qo'yidagilardan iborat:

- vechur investitsiyalar yalpi ichki mahsulotga nisbatan %;
- yangi bozorlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan kapitallashuvi darajasi, %;
- ishlab chiqarish sektorining umumiyo bozorida yangi mahsulot (xizmat)larni sotish ulushi, %;
- har 100 aholi soniga to'g'ri keladigan internetdan foydalanuvchilar soni;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bozori hajmini YaImdag'i ulushi, %da;
- xizmat ko'rsatish sohasida jami xizmatlar hajmida yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushining o'zgarishi.

**Beshinchi guruh ko'rsatkichlari** xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalarga qilingan xarajatlar samaradorligini ifodalaydi:

- texnologik innovatsiyalarni o‘zlashtirishga xarajatlar hajmi;
- zamonaviy xizmatlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilishga umumiy xarajatlar hajmi;
- innovatsiyalarni joriy qilish natijasida xizmatlar realizatsiyasidan tushim;
- innovatsiyalarni joriy qilish natijasida xizmatlar realizatsiyasidan olingan yalpi foyda;
- innovatsiya rentabelligi ko‘rsatkichi (innovatsiya rentabelligi integral samara bilan bog‘liq. Agarda integral samara ijobjiy bo‘lsa, rentabellik 1 koeffitsientdan yuqori bo‘ladi va aksincha. Agarda rentabellik 1 koeffitsientdan kichik bo‘lsa, u holda innovatsion loyiha realizatsiya qilinmaydi). integral samara ( $Y_e$ ) diskontlash vositasida muayyan davrga keltirilgan hisobot davriga natijalar va xarajatlar farqining hajmini o‘zida namoyon etadi.

Bunday mezon asosidagi hisob-kitob quyidagi tarzda ifodalanadi

$$E = \sum_{t=0}^T (N_t - X_t) a_t, \quad (1.1)$$

bu yerda:  $T$  – hisobot yili;  $N_t$  –  $t$ -yildagi natija;  $X_t$  –  $t$ -yilda innovatsiyaga qilingan xarajatlar;  $a_t$  – diskontlash koeffitsienti.

Ushbu metodologiyadan foydalangan holda turli mamlakatlarda erishilgan natijalarni baholash va qo‘srimcha manbalarni talab qiladigan sohalarni ajratib ko‘rsatish imkonini beruvchi innovatsion faoliyatni baholash amalga oshiriladi. Shuning uchun innovatsion faoliyatni umumlashtirilgan holda baholash analitik imkoniyatlarni baholashni nazarda tutadi.

Yuqoridagi metodologiyaga ko‘ra, biz, investitsion faoliyat samaradorligini quyidagi turlari bo‘yicha tasniflaymiz:

1. Umumiy investitsiya loyihalari samaradorligini hisoblash, shu jumladan:

- loyihaning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi;
- tijorat samaradorligi.

2. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etish samaradorligini hisoblash, shu jumladan:

- xizmat ko‘rsatish korxonasining muayyan loyihadagi ishtiroki samaradorligi;
- investitsiya loyihalari ishtirokchilari – aksiyadorlar uchun samaradorlik ko‘rsatkichi;
- investitsiya loyihalarida ishtirok etuvchi korxonalarga nisbatan yuqori darajadagi biznes tuzilmalarining ishtiroki samaradorligi, jumladan: milliy iqtisodiyot va hudud iqtisodiyoti samaradorligi;
- iqtisodiyotning alohida tarmoqlari, korxonalar va birlashma-lardan iborat xo‘jalik faoliyati samaradorligi;
- byudjet samaradorligi (davlat va ijro etuvchi hokimiyat organlarining loyihada xarajatlar va byudjet daromadlari bo‘yicha ishtirok etish samaradorligi).

mamlakatimizda innovatsion-investitsion loyihalarning aksariyati haqiqatda to‘liq innovatsion loyiha hisoblanmaydi, balki rivojlangan mamlakatlarda ilgari qo‘llanilgan texnik yechimlardir. Shuning uchun investitsiya loyihalari samaradorligini aniqlash uchun ularning samaradorligini baholashni konkretlashtirish talab etiladi.

### Foydalangan adabiyotlar:

1. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: darslik / mualliflar jamoasi; ed. Bordovskoy N.V. - 2-nashr, o’chirilgan - M.: KNORUS, 2011. - 432 b.
2. Kovalenko E.M. Ta’limdagi interaktiv texnologiyalar va elektron ta’lim elementlari // Ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida interaktiv ta’limning zamonaviy tizimi. Ilmiy-metodik konferensiya materiallari; Janubiy Federal Universiteti). - Rostov-na-Donu: Janubiy federal universiteti nashriyoti. - B.47-50.
3. Gushchin Yu.V. Oliy ta’limda interfaol o’qitish usullari // "Dubna" Xalqaro tabiat, jamiyat va inson universitetining psixologik jurnali, 2012. - No 2. - B. 1-
4. OECD: The Measurement of Scientific and Technological Activities: Guidelines for Collecting and Interpreting Innovation Data: Oslo Manual, Third

Edition., prepared by the Working Party of National Experts on Scientific and Technology Indicators, Paris, para. 146, - OECD, 2005. – P. 230.

5. Antonio Martina. 7 Lessons From “Innovation and Entrepreneurship” By Peter F. Drucker, 2018. - B. 36-37. <https://medium.com/@antoniomartina/7-lessonsfrom-innovation-and-entrepreneurship-by-peter-f-drucker-d7953127b3b5>

6. Soliyev A.S., Axmedov E.A. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. -T.: Universitet, 2003

7. .Soliyev A., Qarshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. – T.: 1999.